

Date: 21<sup>st</sup> February-2025

**INFORMATIKA TA'LIMINING AHAMIYATI VA UNI O'QITISHDA  
INTERFAOL METODLARNING O'RNI**

**Raxmatullayeva Zaxro To'liqinova**

Toshkent shahar Chilonzor tuman 2-son Politexnikumi  
informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Kompyuter texnikasi va aloqa vositalarining keng rivojlanishi axborotni ilgari hayolga keltirib bo'lmaydigan hajm va tezlikda yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish, ya'ni avtomatlashtirilgan holda ishlov berish imkoniyatini yaratib berdi. Ushbu maqolada ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish, informatika ta'limi orqali o'quvchilar erishadigan natijalar haqida malumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** informatika, ta'lim, innovatsiya, metod, interfaol, pedagogik texnologiya, axborot, kompyuter, usul.

Axborot texnologiyalari tufayli insonning faoliyati, uning kundalik muloqot sohasi dunyo sivilizatsiyasi ishlab chiqqan tajriba, bilimlar va ma'naviy qadriyatlarni jalb etish hisobiga chindan ham behad kangaymoqda.

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion texnologiyalarning jadal kirib kelishi o'quvchilarning mustaqil bilim olishiga, dunyoqarashining kengayishiga, ijod va fantaziyasining boyishiga, shaxsiy fikrga ega bo'lishiga, jamoa o'rtasida hurmatga sazovor bo'lishida intiluvchan, izlanuvchan, mehnatsevar bo'lib tarbiyalanishiga keng sharoit yaratib bermoqda. Bundan tashqari barcha ta'lim muassasalari o'rtasida yagona axborot tarmog'ini tashkil etish, o'quv jarayoniga qo'llash uchun mahsulotlar ishlab chiqarish, virtual kutubxonalar tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli barcha o'quv muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va ularni bevosita o'quv jarayoniga qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta'lim, o'qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyixalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o'qitish o'qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Chunki fan asoslarini o'zlashtirish uchun o'quvchi abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerak, bunga esa o'qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo'llay bilishi orqali erishadi.



Date: 21<sup>st</sup> February-2025

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar asosida o'qituvchining yangi bilimlari o'quvchilar tomonidan muayyan o'quv topshiriq, masalalarni yechishi bo'yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo'nalishda o'quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o'quvchilarning diqqatini qo'yilgan muammolarning mohiyatini - ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo'naltiradi.

Hozirgi davrda olimlar innovatsion ta'lim texnologiyalari tarkibini samarali usul va vositalar asosida tizimlashtirib, ularning tub mohiyatini ochib berishga erishmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborot-ta'lim muhitini shakllantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy-metodologik mavqeini egallaydi.

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o'qitish jarayonida foydalanish o'qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishini talab etadi. Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rinlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi. O'qitish usuli (metodi) (grekcha *metodos* - biror narsaga yo'l so'zidan) - bu ta'lim va tarbiya vositasi sifatidagi o'qitish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining bir-biri bilan bog'langan faoliyatining tartiblangan usullaridir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilayotgan sohalarni bugun har yerda, har qadamda uchratish mumkin. Multimediya texnologiyalari (proyektor), elektron doska va hokazolar kundalik turmushimizga kirib keldi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda o'quvchi-yoshlarga zamonaviy axborot texnologiyalari va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'rgatish, ularda o'z faoliyat sohasida yangi axborot texnologiyalari va interfaol usullardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini hosil qilish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha nazariy va amaliy darslarni tashkil etish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o'rganilayotgan mavzuni yana keng qamrovli tushunib olishga, bilim ko'nikma va malakalarning mustahkamlanishiga olib keladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini faollashtirish, tahlil qilish va shu asosda interfaol ta'lim texnologiyalari, vositalari tizimlashtirildi, o'qituvchi va o'quvchining kompyuterli ta'limdagi faoliyati nazariy va amaliy tahlil etildi. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda interfaol metodlar tashkil etildi, uning samaradorligini aniqlash yuzasidan



Date: 21<sup>st</sup>February-2025

ta'lim muassasalarida pedagogik tajriba o'tkazish va tajriba sinov ishlari statistik tahlil qilindi. Dars jarayonida turli xil boshqotirmalar, krossvord, testlar va dasturlarni o'rgatuvchi video lavhalardan foydalanish faollashtirildi.

Ta'lim va tarbiyaning umumiy maqsadlaridan, informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va roolidan, hozirgi jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalarida informatikani o'qitishning asosiy maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish;
- o'quvchilarning axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish;
- hayotida va kasbiy faoliyatida kompyuterlardan ongli va oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Informatika predmetining pedagogik funksiyalari uni o'quvchining umumiy ta'lim olishidagi asosiy vazifalarini hal etishga qo'shadigan o'ziga xos hissasi bilan aniqlanadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar tomonidan informatika asoslarini egallash va ularning tafakkurini rivojlantirish. Bu vazifa informatika o'qituvchisi oldida turgan birinchi va asosiy vazifadir.
2. Ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish. Bu muhim vazifani hal etishda butun pedagogik jamoa barcha o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida ishtirok etadi.
3. Milliy mafkura ruhida tarbiyalash.
4. O'quvchilarni amaliy faoliyatga, mehnatga, ta'lim olishni davom ettirishga tayyorlash.

Yuqoridagi masalalar o'zaro uyg'un tarzda hal etilishi lozim. O'quvchilar tomonidan informatika asoslarining mustahkam egallanishi asosidagina ularning tafakkurini tarbiyalash va ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratish mumkin. Ikkinchi tomondan, mantiqiy fikrlashga o'rgatish bilangina, o'quvchilarning informatikani fan sifatidagi o'ziga xos tomonlarini chuqur tushunib olishlariga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish darslarning mazmunli tashkil etilishi va o'quvchilarda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish hamda mustahkam bilim olishlariga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. "Xalq so'zi". 11 fevral, 2004 y.
2. "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005, 3-iyun.



Date: 21<sup>st</sup>February-2025

3. Yangi pedagogik texnologiya-hayotiy ehtiyoj. Xalq ta'limi jurnali.
4. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar".
5. S.Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari".

